INNOVATION: THE JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND RESEARCHES
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL
ISSN: 2181-3868 SJIF-2023: 3.812 | ISI: 0.539 | VOLUME 3, ISSUE 3, 2025

TURKIY TILLAR KAUZATIV QURILMALARINING QIYOSIY TAHLILI
(O‘zbek, qorachoy-bolqor, shor va qirg‘iz tillari materiallari asosida)

Turniyazov Behzod Ne’matovich
Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)
E-mail: *behzodsamdchti@gmail.com*

https://doi.org/10.5281/zenodo.15679442

Annotatsiya*. Maqolada turkiy tillarning o‘rganilishi, hozirgi davrda turkologiya sohasining holati haqida mulohaza yuritilib, asosan, ayrim turkiy tillar kauzativ qurilmalarining derivatsiyasi qiyosan tahlil etildi. Natijada turkiy tillar kauzativ qurilmalarining derivatsiyasida umumiy o‘xshashliklar, ba’zi farqlar mavjudligi aniqlandi.*

Kalit so‘zlar: *turkiyshunoslik, qiyosiy tahlil, kauzatologiya, kauzaderivatsiya, kauzaoperand, kauzaoperator, kauzaderivat, mikro - va makrokauzativ qurilma.*

Аннотация. *В статье рассматривается изучение тюркских языков, современное состояние тюркологии, а также анализируется деривация каузативных конструкций в некоторых тюркских языках. В результате было установлено, что в деривации каузативных конструкций в тюркских языках имеются как общие сходства, так и некоторые различия.*

Ключевые слова: *тюркология, сравнительный анализ, каузатология, каузадеривация, каузаоперанд, каузаоператор, каузадериват, микро-и макрокаузативная конструкция.*

Abstract. *The article examines the study of Turkic languages, the current state of Turkology, and analyzes the derivation of causative constructions in some Turkic languages. As a result, it was established that in the derivation of causative constructions in Turkic languages there are both general similarities and some differences.*

Keywords: *Turkology, comparative analysis, causatology, causaderivation, causaoperand, causaoperator, causaderivate, micro-and macrocausative construction.*

Turkiy tillarning qiyosiy tahlili turkiyshunoslik sohasining dolzarb mavzularidan biri bo‘lib kelmoqda. Turkiy tillarni qiyosiy o‘rganish ularning bir-biriga juda yaqin ekanligini ko‘rsatadi. Qiyosiy tahlil borasida katta yutuqlarga erishildikim, ushbu yutuqlarning natijasi o‘laroq, chop etilgan ilmiy asarlar har xil davrlarda yaratilgan bo‘lishiga qaramay, hozirgi kunda ham o‘z qimmatini yo‘qotgani yo‘q. Zero, mazkur sohada bajarilgan ishlarning har biri o‘ziga xos tadqiq usullari va metodologik asoslariga ega bo‘lib, ilmiy salohiyati bilan ajralib turadi. Amalga oshirilgan ishlar jumlasiga misol tarzida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

1. Alohida olingan turkiy tillar grammatikasi yaratildi, ular boshqa tillar bilan ham qiyoslandi. Ilmiy izlanishlarning mahsuli sifatida A.Kazimbek («Общая грамматика турецко-татарского языка» -Казань: Университетская типография, 1846), O.Byotling («Ueber die Sprache der Jakuten. Jakutische Grammatik» -St. -Pbg.: Kaiserliche Akademie der Wissenschaften, 1851), N.Ashmarin («Материалы для исследования чувашского языка» -Казань: Типо-литорафия Императорского Университета, 1898), N.Katanov («Опыт исследования урянхайского языка с указанием главнейших родственных отношений его к другим языкам тюркского корня» -Казань: Типо-литорафия Императорского Университета, 1903), A.Kononov («Грамматика современного турецкого литературного языка» -М. -Л.: Изд-во АН СССР, 1956; «Грамматика современного узбекского

литературного языка» -М. -Л.: Изд-во АН СССР, 1960), X.Dadaboyev va Z.Xolmanovalarning («Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi» -Toshkent: Tafakkur Bo‘stoni, 2015) asarlari nashr ettirildi.

2. Turkiy tillarning ayrim muammolari alohida monografik tadqiqotlarda izohlandi. Masalan, E.Sevortyan («Аффиксы глаголообразования в азербайджанском языке. Опыт сравнительного исследования» -М.: Изд-во АН СССР, 1962), T.Garipov («Башкирские именное словообразование» -Уфа: Ин-т истории языка и лит-ры, 1959), B.Yunusaliyev («Киргизская лексикология» -Фрунзе: Киргизгосучпедиздат, 1959), A.G‘ulomov («Проблемы исторического словообразования узбекского языка» -Ташкент: Изд-во Акад. наук УзССР, 1955) kabi ustozlarning ishlari ilm ahliga taqdim etildi.

3. Umumiy turkologik xarakterga ega bo‘lgan qiyosiy va qiyosiy-tarixiy masalalarga bag‘ishlangan tadqiqotlar amalga oshirildi. Jumladan, V.Radlov («Phonetik der nördlichen Türksprachen» -Leipzig: T.O.Weigel’s Verlag, 1882), V.Bogoroditskiy («Введение в татарское языкознание в связи с другими тюркскими языками» -Казань: Татгосиздат, 1934), K.Gryonbek («Der türkische Sprachbau» -Kopenhagen: Levin & Munksgaard, 1936), M.Rasyanen («Материалы по исторической фонетике тюркских языков» -М.: Изд-во иностранной литературы, 1955), A.Yo‘ldoshev («Аналитические формы глагола в тюркских языках» -М.: Наука, 1965), E. Tenishevlarning («Языки мира. Тюркские языки» -М.: Индрик, 1997) ishlarini ta’kidlab o‘tishimiz mumkin.

Tilshunosligimizning bugungi davrida ham turkologiya sohasida diqqatga sazovor tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bular jumlasiga Y.Saurikovning «Древнетюркские рунические письменные памятники – общее наследие тюркских народов», Sh.Ibrayevning «Типология жанровых разновидностей эпоса тюркских народов», I.Sultanaliyevning «Лексическое богатство словаря «Дивану лугати-т түрк» М.Кашгари и современный кыргызский язык», A.Shayxulovning «Языки золотоордынской цивилизации в евразийском контексте (когнитивные и идеографические аспекты реконструкции лексических систем языков алтайского сообщества)», M.Gatinning «Тюркология в университетах современной Германии», D.Suleymanovaning «Типологические сходства в фонетике тюркских и баскского языков», Q.Sodiqovning ««Devonu lug‘ati-t-turk» matnidagi harakat belgilari va turkiy so‘zlarning o‘qilishi masalasi», S.Badalovaning «Заимствования из тюркских языков в составе русской лексики» nomli ishlarni kiritishimiz mumkin. Bundan tashqari, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 8-oktabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi farmoniga binoan[1], Samarqand davlat universitetiga «Flagman universitet» maqomi berildi. Shu asosda Samarqand davlat universiteti ma’muriyati tashabbusi va Turkiya Jumhuriyatining Toshkentdagi elchixonasi tavsiyasiga binoan, Turkiya Respublikasi Istanbul va Marmara universitetlari qoshidagi Turkologiya ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda Samarqand davlat universiteti huzurida Turkologiya ilmiy-tadqiqot institutini tashkil etishga qaror qilindi. Samarqand davlat universiteti rektorining 2022-yil 19-maydagi 175-ij buyrug‘i asosida Samarqand davlat universiteti huzurida Turkologiya ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi.

Biz mazkur ishimizni turkiy tillar kauzativ qurilmalarining qiyosiy tahliliga bag‘ishladik. O‘zbek tilshunosligida kauzativlik tushunchasining ilmiy talqini yoritilgan salmoqli monografiyalar nashr etildi[2] va kauzativlikning o‘rganilishi masalasi alohida soha sifatida qayd etildi. Bu soha derivatologiya negizida shakllanib, «kauzatologiya» nomi bilan ataldi. Jahon tilshunosligida kauzativlikning tadqiqiga bag‘ishlangan ishlar talaygina bo‘lsa-da, ular kauzatologiyaning tekshiruv obyekti sifatida tavsif etilmagan. Kauzatologiyada mikro-

va makro kauzativ qurilmalarning mental, semantik, leksik, morfologik, sintaktik, kognitiv-pragmatik, emotiv-psixologik xususiyatlari derivativ rejada tahlil etiladi.

Kauzativ qurilmalar mikro- va makrostrukturali bo‘lib, mikrostrukturali kauzativ qurilmalar o‘zbek tilida fe’lning orttirma nisbati *-t, -dir(-tir), -giz(-kiz), -qiz(-g‘iz), -gaz(-kaz, -qaz), -ir ,-ar, -iz, -sat*, o‘zlik nisbati *-n, -l, -in, -il*, buyruq-istak mayli *-(a)y, -(a)yin, -gin(-kin,-qin), -(i)ng, -sin, -(a)yilik, -(i)nglar* shakllari orqali hosil bo‘ladi. Derivativ nuqtayi nazardan mazkur qo‘shimchalar kauzaoperatorlar deb yuritiladi. Ushbu kauzaoperatorlar morfosintaktik kauzatsiyani shakllantirish uchun xizmat qiladi. Mazkur jarayonda kauzaderivatlar yuzaga keladiki, ular gorizontal chiziq paradigmasida o‘ziga xos ma’nolari bilan farqlanadi. Bu ma’no farqlari kauzativlikning *faktiv, permissiv, deontiv, perventiv, assistiv* kabi turlarida namoyon bo‘ladi. Mazkur ma’nolar *jismoniy ta’sir, buyruq, ruhiy ta’sir, shaxsning narsa va tushunchaga ta’siri, narsaning shaxsga ta’siri, narsaning narsaga ta’siri, biror vosita orqali ta’sir, bir necha kauzatorli ta’sir, ruxsat beish yoki bermaslik, adresivlik* kabilarni anglatadi. Masalan, quyidagi misolga e’tibor qarataylik:

–Bizzi osh boshqa-da, ota. Ataylab sizga atab, yumshoqroq qilib pishirtirdim.

Ushbu misolda voqe topayotgan kauzaderivat *adresiv* hisoblanadi. Zero, kauzator kauzantga ta’sirini ma’lum shaxs uchun amalga oshirgan. Derivatning kauzativ ekanligi mikrostrukturali kauzativ qurilmadan (*pish+ir+tirdim*) anglashiladi. Uning adresiv ekanligi *uchun, -ga, atab* operatorlari orqali voqe topadi. Yuqorida qayd etilgan ma’nolarning ifodasi, albatta, mikrostrukturali kauzativ qurilmalarga bog‘liqdir.

Ayrim turkiyshunoslar fe’lning orttirma nisbati qo‘shimchalari orqali shakllanayotgan kauzatsiyani leksik kauzatsiya deb, orttirma nisbat shakllarini fe’l yasovchilar jumlasiga kiritishadi. Masalan, B.A.Musukov «Морфологическая деривация глаголов в карачаево-балкарском языке» nomli ilmiy ishining «Проблема изучения глаголообразования в тюркских языках» deb nomlanuvchi bobida *бил – «знать» – **бил+дир** – «сообщать»; бит– «расти» – **бит+дир** –«выращивать»* kabi holatni fe’ldan fe’l yasalmoqda deb ta’kidlaydi[3.17].

Masalaga o‘zbek tili nuqtayi nazaridan qaraydigan bo‘lsak, fe’ldan fe’l yasalmaydi. Xuddi shu kabi yuqorida keltirilgan qorachoy-bolqor tilidan olingan misollarda ham fe’l yasalishi kuzatilmaydi. Bizningcha, fe’l yasovchi qo‘shimchalar orqali kauzatsiyaning hosil bo‘lishini leksik kauzaderivatsiya deb atasak ma’qul. Zotan, mazkur vaziyatda fe’l yasalishi bilan birga undash ma’nosining mavjudligi ham anglashiladi:

-a affiksi. Bu qo‘shimcha ot, sifat va taqlidiy so‘zlardan fe’l yasaydi hamda kauzativ operator maqomida keladi: o‘yna, qiyna, shildira kabi. Beshik to‘yida xizmat qilasan. Hozir o‘yna.

-ir, -ur affikslari. Berilayotgan qo‘shimchalar ot o‘zakdan kauzatema hosil qiladi. – O‘ynab gapirsang ham o‘ylab gapir. Kostyumni yelkangga il-da, chiq-ket. Hammasiga tupur[2.52-54/2024].

So‘z yasovchi -ir qo‘shimchasining orttirma nisbat shakli bilan omonimlik munosabatida turishini chalkashtirib, nisbat affiksi fe’l yasar ekan deyish, bizningcha to‘g‘ri emas.

Morfologik jihatdan kauzativ qurilmalarning shakllanishida c*hiqazdirib ber, farqlay bil, yeb bitir, qarab boq, bosib bor, yubora boshla, kiyintirib chiq, yordamlashib kel, sudrab ket, olib ko‘r, quloq solib o‘tir, turib ol, tanishib qo‘y, o‘ldira qol, otib tashla, tilab tur, anglab yet, qistab yotibdi, chiqazib yubor, o‘ynatib yur, bezor qilmoq, majbur bo‘lmoq, dag‘dag‘a qilmoq, buyurmoq, yubormoq, farmon bermoq, sababchi bo‘lmoq, da’vat etmoq, majburlamoq, qistamoq, undamoq, yuklamoq* kabi analitik vositalarning ham ahamiyati katta. Zotan, analitik kauzatemalar mikro kauzasituatsiyani voqelantiradi, ammo ushbu derivat komponentlari

so‘zlardan iborat bo‘lganligi bois u nisbatan kattaroq situatsiyani taqozo etadi. Qanday shaklda voqelanishidan qat’i nazar, ushbu kauzatemalar mantiqiy ravishda X (kauzator) – Y (kauzant)– Z (konsekvent – semantik xulosa) tarzida kauzaderivativ munosabatga kirishadi[2.152/2022].

Masalan, *Bayramxon...topshiriqni zudlik bilan bajarishga* ***farmon berdi***.

Keltirilgan misolda morfologik kauzatsiya *farmon berdi* shaklidagi analitik kauzapoerator ko‘magida vujudga kelmoqda.

Shor tilida ham fe’lning orttirma nisbati qo‘shimchalari kauzaoperatorlar hisoblanadi: ***-тыр, -тир, -дыр, -дур*** *– туттыр, кестир, калдыр, толдур;* ***-т*** *– иштет, мактат, одурт;* ***-ыс, -ис*** *– агыс, эмис;* ***-гис, -гыс, -гӱс*** *– чӧргис, тургыс, көргӱс;* ***-р, -ыр, -ур*** *– тӱжӱр, ажыр, ужур* kabi[4.148-149]. O‘zbek tilidagi ***-sat*** kauzaoperatori o‘rnida ***-гӱс*** qo‘llanadi: *көр+**гӱс** – ko‘r+**sat***.

Shor tilida, asosan, kauzativ qurilmalar shu kauzaoperatorlar yordamida tuziladi:

1. *Ол кижи аӈчыларга перген құдайынаӈ ӱчӱн төле+**т**кен* (U kishi ovchilarga bergan sanamlari (ikonalari) uchun (pulni) to‘la+**t**gan).

2. *Салгын агаштар пӱрин учук+**тыр**ча* (Shamol daraxtlar bargini uch+**ir**moqda).

Kauzativ qurilmalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, shor va o‘zbek tillaridagi kauzaoperatorlar ayrim kauzatemalarda qo‘llanishi jihatidan farq qiladi. Buni ikkinchi misolda ko‘rishimiz mumkin: *учук+**тыр**ча – uch+**ir**moqda*. Mazkur holatda tillarda operandga birikuvchi operatorlar pozitsiyasi o‘zgaradi. O‘zbek tilida **-tir** operatorining *uchmoq* fe’liga birikuvi o‘zidan oldin ***-ir*** operatorining kelishini talab qiladi: *uch+**ir+tir*** kabi. Kauzatema hosil qilayotgan bunday operatorlar dubl-kauzaoperatorlar deb yuritiladi. Shor va o‘zbek tili kauzatemalarini ***-tir*** operatorining *uchmoq* operandiga birikishi nuqtayi nazaridan qiyoslaganimizda ularning konstanta ko‘rsatkichi ham kauzasituatsiyaga asosan farqlanadi. Qiyoslang: *учук+**тыр** – k*=C1+S→I1+C2→I2; *uch+**ir+tir** – k*=C1+S→I1+C2→I2+C3→I3. Ko‘rinadiki, shor tilida kauzatema derivatsiyasi konstantasi beshga, o‘zbek tilida esa yettiga tengdir.

3. *Ылар оолакты кара атка мӱн+**дӱр**ип, чери-чуртына нан+**дыр+бысты*** (Ular o‘g‘lonni (bolani) qora otga min+**dir**ib, o‘z yurtiga (jo‘na+**t**+**ish**+di) qaytishga **majbur et+ish+di**).

Berilgan misolda kauzasituatsiya retsiprokal situatsiya bilan distributiv (qurshov munosabati) munosabatda kelayotganini ko‘ramiz. Zotan, undash harakati bir necha shaxs tomonidan amalga oshirilmoqda. Boshqacha aytganda, mavjud jarayonda bir kauzantga bir necha kauzatorning ta’siri kuzatiladi.

Shor tilida kauzativ qurilmalarning analitik formasi derivatsiyasi o‘zbek tildagidek voqelanadi:

1. *Қарындажым абамға эм пӱдӱр саларға* ***полушча*** (Akam dadamga uy qurishda **yordamlashmoqda**).

2. *Пашка кижини пистиӈ тайғаға аӈнарға* ***пожатпаанчабыс*** (Boshqa kishining bizning taygada ov qilishiga **yo‘l qo‘ymaymiz**).

Keltirilgan misollarda analitik kauzaderivatsiyaning mahsulini ko‘ramiz. Mazkur kauzativ qurilmalar bir aktantli bo‘lib, birinchi misoldagi kauzaderivatsiya *assistivlikni* (kauzativ vaziyatda yordam berish ma’nosi o‘z ifodasini topadi), ikkinchisi *perventivlikni* (kauzatsiyada kauzator kauzantga biror amalni bajarishga ruxsat bermaydi) taqozo etadi.

O‘zbek va shor tillarida makrostrukturali kauzativ qurilmalarning derivatsiyasi teng komponentli va tobe komponentli MSQlar (murakkab sintaktik qurilmalar) bilan voqelanadi:

1. *Bu sinash natijasi Akram hojining taajjubini ort+**tir**di va buning sirrini bilishka qiziqsindi.*

2. *Aql va vijdonim qaysi yo‘ldan boshlasa, o‘sha yo‘lga kiraman.*

3. *Мен сени* ***кыйгыргам****, сен тезе ўн пербединъ* (Men senga **qichqirdim** (seni **chaqirdim**), sen esa un chiqarmading (indamading)).

4. *Чортса, чортса, чол полар – Чобалып öссе, эр полар* ((Ot) Uzoq yursa (yursa, yursa), yo‘l bo‘lar – (Yigit) Mehnatda o‘ssa, er bo‘lar).

O‘zbek tilidagi misollarning birinchisida teng komponentli MSQ operandlarining teng bog‘lovchi shaklidagi operator bilan derivativ munosabatga kirishayotganini ko‘ramiz. Bunda MSQ komponentlarining birinchisida kauzativ situatsiya ***-tir*** kauzaoperatori orqali yuzaga kelmoqda. Bu qo‘shimcha faqatgina MSQning birinchi tarkibiy qismini emas, balki mikromatnning umumiy mazmuniy salmog‘ini kauzativ bo‘lishiga xizmat qilmoqda.

Ikkinchi misol semantik jihatdan qismlarining birinchisida undash ma’nosi orqali ifodalanayotgan kauzal harakatning ikkinchisida aniqlanishini bildirayotgan tobe komponentli MSQ hisoblanadi. Unda kauzativ ma’no tobe qism tasarrufida kelayotgan ***bosh+la+sa*** tarzidagi derivatema bilan ifodalanmoqda. Ushbu derivatema mikromatnning umumiy semantik strukturasini kauzativ rejada voqelantirmoqda. O‘z navbatida, mustaqil hisoblanuvchi hokim komponent ham mazmunan kauzativ maydon qurshoviga tushib qolmoqda. Zero, undash harakati amalga oshgandan so‘nggina uning aniqlanishi natijasi ro‘yobga chiqadi[2.193/2022].

Shor tilidagi birinchi misolda (misollarning uchinchisi) komponentlari ***тезе*** (**esa**) so‘zi bilan derivativ munosabatga kirishayotgan MSQ berilmoqda. Qismlarning birinchisi kauzativ bo‘lib, unda ***кыйгыргам*** (**qichqirdim**) fe’li orqali undash ma’nosi berilmoqda. Mazkur qism MSQning ikkinchi qismini ham kauzatsiya qurshoviga olmoqda. Natijada murakkab sintaktik kauzativli qurilma (MSKQ) vujudga kelmoqda. Boshqacha aytganda, MSQ komponentlari avtosemantik maqomda bo‘lsa-da, kauzativ rejada birinchi qism ikkinchisiga sinsemantik xarakter bag‘ishlamoqda.

Misollarning to‘rtinchisi ham xuddi o‘zbek tilidagidek semantik jihatdan qismlarining birinchisida undash ma’nosi orqali ifodalanayotgan kauzal harakatning ikkinchisida aniqlanishini bildirayotgan tobe komponentli MSKQni taqozo etadi.

Shuni aytish kerakki, aksariyat hollarda kauzativlikning *faktiv* hamda *permissiv* turlarining shakllanishi kuzatiladi.

1. *Saroymulkxonim...Safarberganni chaqirtirib, tezda yo‘lga chiqilajagini bildirdi. Mulozimlardan birini Bog‘i Bihishtga, malika Tuman oqaga jo‘natdi* (faktiv).

2. *−Valine’mat Sohibqiron! – yolvordi amirzoda.*

−Bir qoshiq qonimdan kechsunlar. Amirzodaning gunohini kechirsunlar! ...kafillikni o‘z zimmamga olurmen!

−...Mayli, jiyaningizning gunohidan o‘tduk... (permissiv)

Faktivlikda vaziyat tashabbuskori kauzatsiyalovchi subyekt hisoblanadi, kauzatsiyalanuvchi subyekt esa harakat bajaruvchisi vazifasini bajaradi. Permissiv kauzatsiya kauzatsiyalanuvchi subyektning faolligi bilan farqlanadi. Bunda kauzatsiyalanuvchi subyekt ma’lum harakatni bajarishga kauzatsiyalovchi subyektdan ruxsat so‘raydi[2.44/2022].

Kauzaderivatsiya jarayonida mazkur derivatlarning voqelanishini qirg‘iz tilida ham kuzatishimiz mumkin:

1. *Экөө Эр Кишини шаш+****тыр****ды* (Ikkalasi Er Kishini shoshil+**tir**di).

2. *Кар көздү карык+****тыр****ат* (Qor ko‘zni qamash+**tir**ardi).

3. *Бала наның итке жул+****дур****уп жиберди* (Bola nonini itga yul+**dir**ib yubordi).

4. *Бек, кошунду түштөн+****т****өлү* (Bek, qo‘shinni dam ol+**dir**aylik)[5.56-63].

Keltirilgan misollarning birinchi va ikkinchisi faktiv, uchinchi, to‘rtinchisi esa permissiv kauzatsiya sifatida shakllanmoqda. Ularning kauzativ qurilma ekanligi orttirma nisbat shakllarining kauzaoperator vazifasini bajarayotganidan ko‘rinib turibdi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, tahlil natijasida turkiy tillar kauzativ qurilmalarining derivatsiyasida umumiy o‘xshashliklar mavjudligini aniqladik. Maqolamizda ayrim turkiy tillar kauzativ qurilmalarining shakllanishi xususida qisqacha mulohaza yuritdik. Kelgusi ishlarimizda bu haqda kengroq to‘xtalamiz.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» -Toshkent, 2019-yil 8-oktabr//https://lex.uz/docs/-4545884.

2. Turniyazov B.N. Kauzativ qurilmalar sintaktik derivatsiyasi. -Samarqand: SamDCHTI, 2022; Turniyazov B.N., Turniyazova R.B. Kauzatologiya asoslari. -Samarqand: SamDCHTI, 2024.

3. Мусуков Б.А. Морфологическая деривация глаголов в карачаево-балкарском языке//Автореф. дис. докт. филол. наук. -Нальчик, 2011.

4. Дырбенкова Н.П. Грамматика шорского языка. -М. -Л.: Изд-во АН СССР, 1941.

5. Абдиев Т. Конструкции с каузативными глаголами в киргизском языке. -Бишкек: Киргизско-Турецкий университет «Манас», 2009.

6. Turniyozov N., Turniyozova K., Xayrullayev X. Struktur sintaksis asoslari //Samarqand: SamDCHTI. – 2009.

7. Хайруллаев Х. З. Сўз, сўз бирикмаси ва гапнинг предикативликка муносабати //Номзод. дис автореферати. Тошкент. – 2001.

8. Хайруллаев Х. О лингвистической природе уровней языка и речи //Вопросы филологических наук. – 2009. – №. 2. – С. 78-79.

9. Хайруллаев Х. Предикативлик ҳодисаси ва унинг ифода объектлари. – 2002.

10. Khayrullaev K. Z. The relation of word, word composition and sentence to the predicativeness //Abstract of candidate dissertation.–Tashkent. – 2001.

11. Mamirova D. S. Using Slangs in Advertising Texts //International Journal of Management (IJM). – 2021. – Т. 12. – №. 2. – С. 315-320.

12. Shirinboyevna M. D. NUTQIY AKTLARNING REKLAMA MATNLARIDA IFODALANISHI //Innovation: The journal of Social Sciences and Researches. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 39-42.

13. Mamirova D. REKLAMA MATNLARIDA XRONOTOPNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI //Innovation: The journal of Social Sciences and Researches. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 45-47.